

"O'zkiyosanoat" Ajda tizim korxonalari yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun o'quv seminari boshlandi.

// 12.03.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-tizim-korxonalari-yoshlar-maslahatchilar>



Hozirgi kunda "O'zkiyosanoat" AJ tizim korxonalarida mehnat qilayotgan yosh xodimlar soni 5227 nafarni tashkil etadi. Bunday katta va salohiyatli yosh jamoani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquqiy va medisavodxonligini oshirish, sport va intellektual tanlovlarga jalb qilish, qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor qilib borishda zamonaviy va kreativ yondashuv zarur. Buning uchun ular bilan bevosita faoliyat yuritadigan yoshlar maslahatchilarning bilim-ko'nikmalarini muntazam oshirib borish lozim.



Ushbu maqsadda tizim korxonalari yoshlar maslahatchilari uchun 3 kunlik o'quv seminari tashkil etildi. Seminarining ilk kuni qiziqarli ma'lumotlar va ma'ruzalarga boy bo'ldi. Dasturni "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova ochib berdi. Dastlab, Jamiyat Yuridik boshqarmasi yuristi Shohnur Sindarov mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari to'g'risida ma'ruza qildi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jamshid Zikirov yosh xodimlar o'rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida ma'ruza qildi.



Yoshlar ishlari agentligi mutaxassisi Nilufar Matkarimova yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida agentlik tomonidan olib borilayotgan loyihalar, imtiyoz va imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berdi.



Jurnalist, mediatrener Muhayyo Saidovanning mediasavodxonlikni oshirish bo'yicha qilgan ma'ruzasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi. Mutaxassis yoshlarga informatsion xurujda rost va yolg'on axborotni farqlay olish, axborotdan foydalana olish madaniyati, tanqidiy fikrlash, reklama va piar sohasidagi bilimlari bilan o'rtoqlashdi.



Foydali va muhim bilimlarga boy ma'ruzalar davom etadi.